

BOLALAR ADABIYOTI

**Uilyam Shekspir**

# **HAMLET**

Rus tilidan Maqsud Shayxzoda tarjimasida

**BAKTRIA PRESS**  
Toshkent-2013

УДК 84 (4BBr) -  
КБК Sh42  
821.111.-053.5

Rus tilidan Maqsud Shayxzoda tarjimasida

**Sh42 Shekspir, Uilyam**

**Hamlet/Uilyam Shekspir:** tarjimon M. Shayxzoda. — Toshkent: Baktria press, 2012. — 160 b. — (Bolalar adabiyoti).

Buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir (1564–1616) insoniyat yaratgan daho ijodkorlardan biridir. Uning xalqparvarlik, hurfiylik, adolat, ezgulik, yuksak insoniy mubabbat g'oyalarini ulug'lab yozgan dramalari va nafis sonetlari asrlar osha barhayot yashab kelmoqda. Ulug' adibning «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar», «Makbet» singari o'nlab dramalari jabondagi barcha yirik teatrlar sahnasini bezadi.

O'zbek o'quvchilari va tomoshabinlari U. Shekspir asarlari bilan o'tgan asrning 30-yillarida tanishgan edi. Shundan beri adib asarlari O'zbek Davlat Milliy teatri sahnasidan tushmay kelmoqda. Xalqimiz orasida Shekspirning «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Yuliy Sezar» dramalari juda mashhur bo'lib ketgan.

E'tiboringizga havola etilayotgan Shekspir dramalarini o'zbek xalqining ulug' shoirlari G'afur G'ulom va Maqsud Shayxzoda tomonidan katta mahorat bilan tarjima qilingan.

УДК 84 (4BBr)  
КБК Sh42

## ISHTIROK ETUVCHILAR

**Klavdiy** — Daniya (Danimarqa) qirol.

**Hamlet** — ilgarigi qirolning o'g'li, hozirgisining jiyani.

**Poloniy** — saroy vaziri.

**Goratsio** — Hamletning do'sti.

**Laert** — Poloniyning o'g'li.

**Voltimand, Korneliy, Rozenkrans** — saroy ahllari.

**Gildenstern.**

**Ozrik.**

**Aslzoda.**

**Pop.**

**Marsell, Bernardo** — mulozimlar.

**Fransisko** — sarboz.

**Reynaldo** — Poloniyning xizmatkori.

**Aktyorlar.**

**Ikki go'rkov.**

**Fortinbras** — Norvegiya shahzodasi.

**Kapitan.**

**Ingliz elchilari.**

**Gertruda** — Daniya malikasi (qirolchasi). Hamletning onasi.

**Ofeliya** — Poloniyning qizi.

Lordlar, ledilar, mulozimlar, askarlar, matroslar, mahramlar, choparlar.

Burungi qirolning (Hamlet otasining) arvohi.

Voqea joyi: Elsinor.

# I PARDA

## BIRINCHI SAHNA

Elsinor, Qasr oldida maydoncha. Yarim kecha.

*Fransisko* poyloqda turibdi. Soat o'n ikkini urmoqda. *Bernardo* uning yontga kelib qoladi.

*Bernardo* Kim bor bunda?

*Fransisko* Sen o'zing kimsan, ayt, avval.

*Bernardo* Yashasin qirolimiz!

*Fransisko* Bernardo?

*Bernardo* Ha, men.

*Fransisko* Barakalla, keldingiz xuddi paytida.

*Bernardo* Borib uxla, Fransisko, soat o'n ikki.

*Fransisko* Almashgani kelibsiz, rahmat birodar,  
Ham sovqotdim va hamda yurakda g'ash bor.

*Bernardo* Osoyishmi poyloqda?

*Fransisko* Hamma yoq sokin.

*Bernardo* Xayrli kech bo'lmasa.  
Uchrab qolsa mabodo Goratsiy, Marsell,  
Ayting: barvaqt kelsinlar navbatlariga!

*Fransisko* Kelmoqdalar chamasi, hay, to'xta, kim u?

*Goratsio va Marsell kirib keladilar.*

*Goratsio* Bu diyorning do'stimiz.

**Marsell** Va shoh qaroli.

**Fransisko** Xayrli kech!..

**Marsell** Xayr senga, ayt-chi, o'ringga  
Kim kelibdi?

**Fransisko** Bernardo poyloqda hozir.  
Yaxshi qoling.

(Ketadi.)

**Marsell** Hay, Bernardo!

**Bernardo** Gapiring. Goratsiy bormi?

**Goratsio** Goratsiymi? Ha, bir nav borga o'xshaydi.

**Bernardo** Do'stim Marsell, xush ko'rdik. Goratsiy, salom.

**Marsell** Ko'rindimi bugun ham u ajoyibot?

**Bernardo** Hozircha tinchlik!

**Marsell** Goratsiy o'ylaydiki, bu gaplar tamom  
Xayolning bir jilvasi. Ishonmaydiki,  
Ikki marta ko'rindi bizga u arvoh,  
Shu uchun ham bu kecha biz bilan baham  
Posbonda tur dedim; u arvoh kelib —  
Oshkora ko'rinsa, gaplashsin o'zi,  
Va gumondan qutulsin.

**Goratsio** Kelib bo'libdi!

**Bernardo** O'tiraylik. Va yana bo'lsa ijozat,  
Bizga bovar qilmagan qulog'ingizga  
Bor gaplarni naql etib, aylasak hamla.

**Goratsio** Xo'sh! Tinglaylik, nima der bizga Bernardo.

**Bernardo** Kecha, Hulkar yulduzi uchib ketmasdan  
Soat bir bo'lgan edi, men bilan Marsell...

*Arvoh kirib keladi.*

**Marsell** Tss... Jim turgin. Ana boq, tag'in u arvoh.

**Bernardo** Qiyofasi — rahmatlik qirolning o'zi.

**Marsell** Sen — donishmand, Goratsiy, so'zlash u bilan.

**Bernardo** Xo'sh, gapir-chi, qirolga o'xshaydimi, ha?

**Goratsio** O'xshaganda ham qanday! Hayronman, motman.

**Bernardo** Sendan savol kutar u.<sup>1</sup>

**Marsell** So'ra, Goratsiy.

**Goratsio** Kimsan o'zing, tun chog'i Daniya mulkin —  
Jannatmakon shohiday basavlat kelgan?  
Xudovandning amri-la avrayman seni —  
Javob ber!

**Marsell** Ranjib qoldi.

**Bernardo** U ketayotir.

**Goratsio** Ketma! So'zla! Javob ber! Avrayman seni!

*Arvoh ketadi.*

**Marsell** Gapirgusi kelmasdan ketib qoldi u.

**Bernardo** Xo'sh, Goratsiy? Ne dersiz? Tan berasizmi?  
Endi qani, xayolning jilvasimi bu?  
Nima deysiz?

---

1 Qadimgi odamlarning e'tiqodiga ko'ra, arvohlar birinchi bo'lib o'zlarini gapirmas ekanlar.

- Goratsio** Tangriga ont ichamanki,  
Ishonmasdim, ko'rmasam o'z ko'zim bilan.
- Marsell** Podshohga o'xshashin desang-chi!
- Goratsio** Balli —  
Sen o'zingga sen o'zing o'xshaganingday.  
Yana shuki, egnida sovut-anjomi  
Norveg jangi kunida kiygan liboslar.  
Chehrasi-chi, badqovoq, xuddi Polshaning —  
Elchilarin jahl ila muzga tashlatgan  
Mahaldagi yuzidir. Ajib, ajoyib.
- Marsell** Ikki marta kechening ayni shu chog'i  
Yonimizdan o'tdi u sersavlat, mag'rur.
- Goratsio** Buni aqlim batafsil ta'bir qilolmas,  
O'ylashimcha, davlatga halokat — balo  
Keladigan chog'larning alomati bu.
- Marsell** Xay to'xtanglar. O'tiring. Kim menga aytar?  
Fuqaroni kechalar qiynagan, siqqan  
Soqchilarda ne uchun shuncha qattiqlik?  
Quyilmoqda mis to'plar yangidan nega?  
Chet ellardan yarog'lar olinar nechun?  
Hafta bo'yi, yakshanba hordiq olmasdan  
Kemasozlar ishining boisi nima?  
Kechani ham kunduzga madadkor qilib  
Ter to'kmoqning, g'ayratning qayerda siri?  
Kim bularni anglatar?
- Goratsio** Bilganim aytay.  
Har holda ovoza menga ma'lumki,  
Hozirgina arvohi yurgan bu shohni  
Norveglarning qiroli jangga qistadi.  
Bu urushda yenggandi Hamlet otasi,  
(Zotan uning mardligi olamga mashhur)  
Mabv bo'lgandi yov tamom. Ahdnoma ila  
Qaysi tomon yengilsa bu jang-jadalda

Voz kechmog'i kerakdi o'z yerlaridan.  
Demak, Norveg shohining — Fortinbrasning  
Barcha mulki o'tgandi ota — Hamletga.  
Hozir-chi: o'lib ketgan Fortinbrasning  
Vorisi yosh Fortinbras to'lib jur'atga  
Norvegiyada yo'lto'sar to'dalar yig'di.  
U kishining niyati — qaytadan yana  
Qo'ldan ketgan yerlarni zo'rlab egallash.  
Bizga yetgan xabarlar buni tasdiqlar.  
O'ylashimcha, bizda shu dovdirash — qayg'u,  
Safarbozlik, o'lkada andisha — tashvish  
Hammasi ham shu vajdan.

**Bernardo** Ha, ha, xuddi shundadir hamma masala,  
Shohga o'xshab poyloqda yurgan shu arvoh  
Sovut kiyib yurgani bekor emas-da.

**Goratsio** U, aqlimning ko'klarini xira qilgan dog'.  
Men Rumoning savlatli zafar kunlarini,  
Buyuk Yuliy<sup>2</sup> qaqshagan chog'ni eslayman;  
U zamonlar go'rlarning bo'sh turgan ichi,  
Ko'chalarda o'liklar tashlanib yotgan.  
Yulduzlarning o'tidan qizargan shabnam,  
Dog'lar paydo bo'lganmish, quyoshda, oy ham  
Qiyomat bo'lgusiday qorayib qolgan,  
Shunday yomon ofatdan, falokatlardan  
Ogoh qilay deb bizning hamshaharlarni —  
Shuini choparni yuborgan bizga ham falak.

*Arvoh qaytib keladi.*

Jim bo'linglar! U keldi... Nima bo'lsa ham  
To'xtataman. Tebranma, to'xta, ey arvoh!  
Agar bo'lsa sal nutqing,  
Ayt siring menga!  
Balki senga fотиha, bizlarga savob

---

2 Yuliy Sezar (Miloddan ilgari 100–44 yillar) Rim imperatori. Brut boshliq suiqasdchilar tomonidan o'ldirilgan (Shekspirning «Yuliy Sezar» tragediyasiga qaralsin).



Bo'ladigan kori-xayr qilmoqlik shartdir!  
Ayt siring menga!  
Balki, bizning diyorga bir balo kelgan.  
Bu baloni qaytarmoq mumkindir balki.  
Siring ayt menga!  
Balki tirik chog'ingda haromxo'rlik-la  
Jang'argan bir g'aznani yerga ko'mgansan.  
Derlarki g'aznalarga arvohtar ko'p o'ch.  
Sirin aytgin! To'xtagin!.. Ayt, sirin menga!  
Xo'roz qichqiradi.  
Marsell, ushla!

*Marsell* Chopaymi oybolta bilan?

*Goratsio* Pirtillasa chopavur,

*Bernardo* Ana, boq!

*Goratsio* Ana!

*Arvoh ketadi.*

*Marsell* Ketib qoldi. Bizdagi bu zo'ravonlik  
U shobona hazratga og'ir haqorat.  
U havoda bug' kabi ushlanmaydigan.  
Bizning qilich zarbimiz — masxara, xolos.

*Bernardo* Shu xo'roz qichqirmasa, u so'zlar edi.

*Goratsio* Ha, shunda bir seskandi gunohkor kabi.  
Aytmoqchi bo'lganidan cho'chidi go'yo  
Derlarki, go'yo xo'roz tong karnaychisi  
Qiyqirib uyg'otadi kunduz tangrisin.  
Go'yo uning sadosin eshitgach hamon —  
Havodami, o'ldami, quruqda, suvda  
Kezayotgan sayoq ruh uyga shoshilar.  
Bu qissaning dalilin biz hozir ko'rdik.

**Marsell**

Rostdan. Xo'roz qichqirgach u xira bo'ldi,  
Elda bir e'tiqod bor, go'yo har qishda  
Hazrat Iso bayrami arafasida  
Tuni bilan qichqirib turarkan xo'roz.  
Deydilarki, u kecha — arvohtar jimjit,  
Tunlar — sokin, yulduzlar — beozor bo'lur,  
Sehrgarlar, parilar jodu qilolmas,  
Shunday ezgu, muqaddas vaqt ekan u vaqt.

**Goratsio**

Men ham bunday gaplarni eshitgan edim.  
Endi qo'ying. Ana tong alvon libosda  
Adirlarning shabnamini toptaydi sharqda.  
Posbonlarga ijozat. Yana maslahat:  
Ko'rganlarni shahzoda Hamletga aytsak.  
Aminmanki, bizga lol kelgan shu arvoht  
Hamletga uchrab qolsa kiradi tilga.  
Do'stlar, qani, ne dersiz? Unga barchamiz  
Mehr-u ixlos qo'yibmiz. Endi bo'lmasa —  
Bor gaplarni batamom aytaylik unga!

**Marsell**

Fikrimcha aytmoq lozim. Zotan shu bugun, —  
Uning qaydaligini yaxshi bilaman.

*Ketudilar.*

## IKKINCHI SAHNA

Qasrda qabulxona zali. *Qirol, malika, Hamlet, Poloniy, Laert, Voltimand, Korneliy, saroy ahli va mahramlar* kirib keladilar.

**Qirol**

Garchi Hamlet og'amiz azasida biz  
Qora kiyib qayg'urib yurmog'imiz shart,  
Davlatimiz bu og'ir motamdan yig'lab  
Falokatdan vovaylo qichqirmog'i farz,  
Ammo aql yengadi kishi xilqatin.  
Bundan keyin unutmay biz o'zimizni,  
U marhumni yengilroq esga olaylik.  
Binobarin, men — bizning hamshiramizga,

Bugungi kun bonumuz, malikamizga —  
Rafiqam deb uylanib olmoqchi bo'ldim.  
Alam bilan quvonchlar qatishib ketdi.  
Ko'z yoshlari qarishdi tabassumlarga.  
Bamaslahat qilindi bu xayrli ish,  
Hamma bizga ra'y berib ma'qul deyishdi.  
Hammingizga tashakkur... Ikkinchi so'zim:  
Norvegning shahzodasi yosh Fortinbras  
Pisand qilmay bizlarni, o'ylamishdirki,  
Vafot bo'lgach og'amiz, el bo'lur barbod.  
Mamlakatda ittifoq buzilur tamom.  
U o'zining yulduzin o'ylabdi baland,  
Hozir talab qilmoqda ota yurtlarin,  
U yurtlarki, og'amiz insof yuzidan  
Qo'shgan edi o'zining mamlakatiga.  
U haqdagi xabarlar shundan iborat.  
Endi, bizning kengashning vajini aytay:  
Mana, biz shu maktubni yubormoqchimiz —  
Norveg shohi, Fortinbras amakisiga.  
U juda ham qartaygan va shu tufayli,  
Ehtimolki, bilmaydi jiyan fe'lini.  
Biz bu xatda qiroidan iltimos qildik —  
Jiyanin tiyib qo'ysin, chunki aslida  
Hamma qo'shin u shohning fuqarosidan,  
Hammasi ham non yeydi xazinasidan,  
Marhamatli Voltimand va siz Korneliy  
Bu maktubni eltingiz keksa podshoga.  
Salom ayting Fortinbras amakisiga.  
Elchilikning haddidan chiqmangiz sira,  
U shoh bilan suhbatda odob saqlangiz.  
Qoida-yu qonunga qiling rioya.  
Yaxshi boring... Chaqqonlik ixlosga isbot.

***Korneliy ham Voltimand***

Har galgiday bu gal ham qilurmiz isbot,

***Qirol***

Bunga yo'qdir shubhamiz. Sizlarga oq yo'!

*Voltimand va Korneliy ketadilar.*

Qani, Laert, so'ylang-chi, yangi nima gap?  
Deb edingiz: — Arzim bor. Aytingiz nima?  
Qaysi ma'qul bir ishki, so'ralsa bizdan  
Qondirurmiz albatta. Hech bir arzingiz —  
Biz tomondan sira rad etilmas, biling.  
Dil va kalla qanchalik oshno bo'lsa,  
Og'izning xizmatida qancha yursa qo'l —  
Otangizga taxtimiz shuncha madadkor.  
Qani, xizmat?

**Laert** Podshohim, ruxsat beringiz,  
Fransiyaga men yana qaytib borayin.  
Men hazratning toj qo'yish marosimida  
Qatnashgani u yerdan jo'nab kelgandim.  
Kechiringiz, burchimni ado ayladim,  
Endi fikr-u xayolim undar u yerga.  
Ta'zim bilan so'rayman sizdan ijozat.

**Qirol** Otang ruxsat berdimi? Ne der Poloniy?

**Poloniy** Jonga tegdi, podshohim, hadeb yalinib.  
Aynitmoqchi bo'lsam-da, hech kor qilmadi.  
Roziligim bildirdim, oxir, noiloj,  
Siz ham uni yarlaqang, mayli, jo'nasin!

**Qirol** Soat qulay, baxting yor bo'lsin, ey Laert.  
Ta'bing nechuk xohlasi, shunday yuraver.  
A, Hamlet-chi? Nima der jigarporamiz?

**Hamlet** (O'zi-o'ziga)  
Jigarpora: va lekin yotdan ham badtar.

**Qirol** Nega yana yuzingda bulut soyasi?

**Hamlet** Yo'q, aksincha: nojo'ya ravshanlik bordir.

**Malika** Hamlet, yetar, tun kabi badqovoq bo'lma.  
Sen qirolga mehribon ko'z bilan qara.  
Qachongacha, otamning tuproqda izin

Topayin, deb sen yerga qarab yurasan?  
Bu taqdiri azaldir, tirik jon o'lar,  
Umr bitgach, manguga u ko'chib qolar.

**Hamlet** Bu taqdiriy azaldir.

**Malika** Bo'lmasa nega —  
Azang, go'yo, mislsiz ko'rinar senga?

**Hamlet** «Go'yo» emas, malikam, zotan o'zi shu.  
«Go'yo»larga men yotman. Bu sipohi to'n,  
Qora kiyim, entikkan keskin nafaslar,  
Ko'z yoshlardan quyilgan xunob oqinlar,  
Hatto g'amning har turli ko'rinishlari  
Dilimdagi hasratni izhor qilolmas.  
Chunki bular hammasi sun'iy, yasama.  
Bular biror qiliqki, o'ynamoq oson.  
Dardlarim-chi, a — ular bo'yoqlarga yot,  
Mening dardim yasanib o'rtaga chiqmas.

**Qirol** Barakalla, qoyilman so'zingga Hamlet,  
Sen otangning azasini mahkam tutasan,  
Ammo bilki, otangning otasi bo'lgan,  
U ham o'lgan. Hokazo, uning otasi.  
Otalarning vafotin ko'rgan o'g'illar  
Biror muddat alamli yurmog'i lozim.  
Ammo nuqul azalik bo'lmoq behuda.  
Bunday motam erkakka munosib emas,  
Bu — ko'p razil xohishlar alomatidir.  
Bu ko'r yurak, ishonchsiz aqlu farosat  
Va ko'p dag'al tushuncha belgisi, xolos.  
Bu bandalik, hammaga taalluqli ish.  
Bunga qarsbi javramoq ayni kufr-ku.  
Parvardigor nazdida bu — ulug' gunoh,  
Rahmatlikka nisbatan bu zo'r gunohdir.  
Bu gunohdir tabiat — xilqat oldida,  
Aqlu zehn oldida bu katta gunoh.  
Chunki aqlu zehnimiz bunga ko'nikkan,  
Otalarning o'lmog'i eski bir odat.

Eng birinchi jasadni aqlimiz eslab,  
Eng so'nggi tobutni ham jo'naturib  
Shunday deydi: «Ha, shunday, bo'lmog'i lozim».  
Alamingni qoq, tashla, iltimosim shu:  
Yuragingda qabul et bizni ota deb,  
Butun olam bilsinki, sen taxtimizga  
Eng yaqin bir odamsan, aziz, suyukli:  
Mehribon ota dili silaydi, seni,  
Vittenbergga qaytaman o'qishga deysan,  
Bu niyating bizlarga ma'qul ko'rinmas.  
O'tinaman, o'ylagin, qolgin bu yerda,  
Qolgin, xuddi qimmatli nuridiydami.  
Qolgin xuddi vorisday, aziz o'g'ilday<sup>3</sup>.

**Malika** Yolbormasin onang ham o'g'lim behuda.  
Bunda qolgin, bormagin Vittenbergga sen.

**Hamlet** Amringizga mute'man, shavkatli bonu.

**Qirol** Mana qisqa, odoblik, loyiq bir javob.  
Bu qasrimiz — seniki! Bonu, ketaylik.  
Yuraklarni shod qildi ixlosmand Hamlet.  
Bu ixlosning sha'niga maylar ichilur,  
Qadahlarning sonini bildirmoq uchun  
Zambaraklar bulutga qilur jarchilik.  
Osmonning sadosi, kosa nidosi  
To'plarning na'rasiga qo'shilsin hamon.  
Qani, yuring...

*Hamletdan boshqa hamma ketadilar.*

**Hamlet** Koshki, shu go'sht to'rvasi mahv bo'lsa tamom.  
Yo erisa, chirisa, yoki bug' bo'lsa!  
Koshki edi, demasa xalloqi-olam  
O'z-o'zini o'ldirmoq fe'lini gunoh.  
Butun dunyo o'zining harakatida —

3 Qirol, agarda Hamlet Daniyadan chiqib ketse, chet mamlakatlarda unga qarshi kurash uyushtirishi mumkin, degan andisba bilan uning qollishini o'tinadi.

